



ISH VAQTI

Pirjanbaeva Altinay Karjaubay qızı

*Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti
Yuridika fakultiteti, Milliy g'oya, manaviyat asoslari
va huquq talimi yo'nalishi 2-kurs talabasi*

Annotasiya: *Bu maqolada mahnat faolayti bilan bog'liq eng asosiy maslaalardan biri bo'lgan ish vaqti tushunchasi haqida so'z boradi. Ish vaqti tushunchasining huquqiy tarifi bilan bog'liq ma'lumotlar beriladi.*

Kalit so'zlari: *Mehnat, faolyat, ish, ish vaqti, mehnat shartnomasi, ish beruvchi, nominal, real ish haqi, mehnat sarfi*

Ish vaqti — xodimning ijtimoiy tashkil etilgan mehnatda ishtiroki davomiyligi me'yori; xodim bevosita o'z mehnat vazifalarini bajarishi uchun lozim bo'lgan, qonun bilan yoki qonun asosida belgilangan vaqt.

Tabelda belgilangan, ya'ni ish vaqtida ish joyida bo'lganlikni hisobga olish hujjatida qayd qilingan real vaqt ish vaqti hisoblanadi. Ish vaqti ishlab chiqarish uchun ketgan mehnat sarfi va mehnat harajatlari hajmini ifodalaydi, ya'ni mehnatning o'lchovi hisoblanadi. Ish vaqtini o'lchashning asosiy birliklari kishi-kun, kishi-soat, kishi-minut (xronometraj, ish vaqti fotografiyasi va lahzaviy kuzatishlar o'tkazish), kishi-oy, kishi-chorak, kishi-yil kabilardan iborat. Tabel hisobi kishi-kunda hisoblanadigan ish vaqti haqidagi ma'lumotlarning asosiy manbadir.[1]

Mehnat Kodeksining 181-moddasiga binoan ish vaqti tushunchasi – xodim ish tartibi yoki grafigiga yohud mehnat shartnomasi shartlariga muvofiq o'z mehnat vazifalarini bajarishi lozim bo'lgan vaqti ish vaqti hisoblanadi.[2]



Mehnat faoliyatida sog'lig'iga fizikaviy, biologik, kimyoviy va ishlab chiqarishning boshqa zararli omillari ta'sir etadigan xodimlar uchun ish vaqtining haftasiga 30 soatdan oshmaydigan qisqartirilgan muddat belgilanadi. Aqliy zo'riqish, asab tangligi, yuqori darajadagi his-hayajon, ya'ni alohida tusga ega bo'lgan ishlardagi ayrim toifadagi xodimlar uchun (tibbiyot xodimlari, pedagoglar va boshqalar) ish vaqtining muddati haftasiga 36 soatdan oshmaydigan qilib belgilangan bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Hukumati tomonidan xodimlar ro'yhati va ish vaqtining aniq muddati belgilanadi. To'liqsiz ish vaqti Mehnat Kodeksining 186-moddasi bilan asosan, mehnat munosabatlarida xodim va ish beruvchi o'rtasidagi kelishuvga binoan mehnat shartnomasini tuzish vaqtida yoki keyinchalik ham to'liqsiz ish kuni yoki to'liqsiz ish haftasi belgilab qo'yilishi mumkin. Shuningdek, Mehnat Kodeksining 229-moddasiga binoan va boshqa normativ hujjatlarda nazarda tutilgan hollarda xodimning iltimosiga ko'ra to'liqsiz ish vaqtini belgilab qo'yishi shart. Xodimning ish muddati to'liqsiz ish vaqti qilib belgilanishi mehnat stajini hisoblashni, yillik asosiy mehnat ta'tilining muddatini qisqartirish hamda boshqa mehnat huquqlarini cheklashga asos bo'lmaydi.

Xodimlar uchun ish vaqtining me'yori muddati haftasiga 40 soatdan ortiq bo'lmasligi, 6 kunlik ish haftasida har kungi ishning muddati — 7 soatdan, 5 kunlik ish haftasida — 8 soatdan ortib ketmasligi shart. Ayrim toifadagi xodimlar uchun ular yoshi, sog'lig'i, mehnat shartlari, mehnat vazifalarining o'ziga xos xususiyatlari va o'zga holatlarni inobatga olib, mehnat to'g'risidagi qonunlar va boshqa me'yoriy hujjatlarga, shuningdek, mehnat shartnomasi shartlariga binoan mehnat haqini kamaytirmasdan, ish vaqtining qisqartirilgan muddatlari belgilanadi. Mazkur ishlarning ro'yxati va ish vaqtining aniq muddati O'zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan belgilanadi. Bayram kunlari arafasida kundalik ish (smena) muddati barcha xodimlar uchun kamida 1 soatga qisqartiriladi. Xodim bilan ish beruvchi o'rtasidagi kelishuvga binoan, ishga qabul qilish chog'ida va keyinchalik ham to'liqsiz



ish kuni yoki to'liqsiz ish haftasi belgilab qo'yilishi mumkin. To'liqsiz ish vaqti sharti bilan ishlash xodimning yillik asosiy mehnat ta'tili muddatini, mehnat stajini hisoblash va boshqa mehnatga oid huquqlarni biron-bir tarzda cheklashga asos bo'la olmaydi, bunda ishlangan vaqtga yoki ishlab chiqarilgan mahsulotga mutanosib ravishda haq to'lanadi.[3]

Ish vaqti bilan bog'liq boshqa maslalar xodim va ish beruvchi o'rtasidagi mehnat shartnomasida ko'rsatilishi kerak. Mehnat faolyatini olib borish jarayonida ish vaqti bilan bog'liq muommaolar yoki nizolar shartnoma asosida yoki mehnat kodeksida ko'rsatilgan tartibda yechiladi. Intizomli huquqbuzarliklar nizomda belgilangan tartibda jazoga tortilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
2. Ўзбекистон Республикаси Меҳнат кодекси. Тошкент, 2022 й.
3. https://uz.wikipedia.org/wiki/Ish_vaqti